

SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Eshqobilova Nargiza Mengnarovna

Denov Tadbirkorlik Pedagogika instituti

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası PhD,

katta o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0009-9788-4853

E-mail: neshqobilova@dtpi.uz

Аннотация

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida turizm xizmatlari samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilindi. Tadqiqotda hududning tabiiy, tarixiy va madaniy resurslari baholandi hamda turizm infratuzilmasi va xizmatlar tizimining holati o‘rganildi. Statistik ma‘lumotlar asosida turistlar soni va turizm daromadlarining o‘shish dinamikasi aniqlanib, mavjud salohiyat to‘liq ishga solinmayotgani ko‘rsatildi. Tahlil natijalari mehmonxonalar bandligi, marketing faoliyati va mavsumiylik omillari samaradorlikka ta‘sir etishini tasdiqladi. Raqamli marketing, xizmat sifatini oshirish va hududiy turizm klasterlarini rivojlantirish samaradorlikni oshirishning muhim yo‘nalishlari sifatida asoslandi.

Kalit so‘zlar: turizm samaradorligi, Surxondaryo, turizm infratuzilmasi, marketing, xizmat sifati, raqamli turizm, turizm daromadi, klaster.

Аннотация

В данной статье проанализированы пути повышения эффективности туристических услуг в Сурхандарьинской области. В исследовании оценены природные, исторические и культурные ресурсы региона, а также изучено состояние туристической инфраструктуры и системы услуг. На основе статистических данных выявлена динамика роста числа туристов и доходов от туризма, при этом установлено, что имеющийся потенциал используется не в полной мере. Результаты анализа подтвердили влияние загрузки гостиниц, маркетинговой активности и сезонности на эффективность. Также обоснованы такие направления повышения эффективности, как цифровой маркетинг, улучшение качества услуг и развитие туристических кластеров.

Ключевые слова: эффективность туризма, Сурхандарьинская область, инфраструктура туризма, маркетинг, качество услуг, цифровой туризм, доходы, кластер.

Abstract

This article analyzed ways to improve the efficiency of tourism services in the Surkhandarya region. The study evaluated the region’s natural, historical, and cultural resources and examined the state of tourism infrastructure and service systems. Based on statistical data, the growth dynamics of tourist arrivals and tourism revenues were identified, showing that the existing potential is not fully utilized. The analysis confirmed that hotel occupancy, marketing activity, and seasonality significantly affect efficiency. It was also established that digital marketing, service quality improvement,

and the development of regional tourism clusters are key directions for increasing efficiency.

Keywords: tourism efficiency, Surkhandarya region, tourism infrastructure, marketing, service quality, digital tourism, revenue, cluster.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2025-yilda 3,5 foizni tashkil qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabr 348-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan 2030-yilgacha turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari belgilandi¹. Unga ko‘ra, ko‘rsatilgan muddatga qadar turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizgacha yetkaziladi va chet ellik turistlarning yillik sonini amaldagi 10 mln nafardan 20 mln nafargacha yetkaziladi, shu jumladan, to‘lov qobiliyati yuqori bo‘lgan turistlar oqimini ko‘paytiriladi². O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-may 324-son “Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori³ aynan viloyatda turizm salohiyatini rivojlantirish va turizm samaradorligini oshirishga asos bo‘ldi.

Surxondaryo viloyati o‘zining tabiiy go‘zalligi, tarixiy obidalari va madaniy merosi bilan turizm salohiyatiga ega hudud hisoblanadi. Shu sababli viloyatdagi turizm xizmatlarining samaradorligini oshirish, xizmat sifati va marketing tizimining yetarli darajada rivojlantirish davr talabiga aylanmoqda.

Bu bo‘yicha mamlakatimizda turizm sohasini iqtisodiyotning muhim strategik tarmog‘i sifatida yanada rivojlantirish, sayyohlar oqimini keskin oshirish, yangi turizm obyektlarini tashkil etish, sohadagi tadbirkorlarni qo‘shimcha ravishda qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mavjud ish o‘rinlarini saqlab qolish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-may PF-87-son “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni⁴ imzolandi. Unga ko‘ra 2025-yil 1-iyundan boshlab Bahrayn Qirolligi, Kuvayt Davlati va O‘mon Sultonligi fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan e‘tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim belgilanganligi qayd etilgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabr PQ-348-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7851788>

² <https://xabar.uz/uz/jamiyat>

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-may 324-son “Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-3718540>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-may PF-87-son “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-7531559>

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha P.Kotler, J.Bowen, J.Makenslarning "Mehmondo'stlik va turizm uchun marketing" nomli kitobida turizm xizmatlari marketingini rivojlantirish bo'yicha nazariy asoslar, mehmonlar tajribasini oshirish, xizmat sifatini yaxshilash va raqamli platformalarda reklama strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan¹. Surxondaryo viloyatidagi turizm samaradorligini oshirishda marketing yondashuvlarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Jahon turizm tashkilotining 2024-yildagi "Turizm statistikasi hisoboti" turizm oqimlari va samaradorlik ko'rsatkichlarini taqdim etadi². BMTning Jahon Savdo Tashkiloti ma'lumotlari viloyatdagi turizmni xalqaro kontekstda solishtirish va raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqishda asosiy statistika sifatida ishlatiladi.

S.L.Smithning 2022-yildagi "Turizm tahlili" kitobi turizm iqtisodiyoti va turizm xizmatlarining samaradorligini o'lchash metodologiyasini yoritadi³. Surxondaryo turizm salohiyatini baholashda foydalanuvchi daromadlari, mehmonlar soni va xizmatlardan olinadigan daromad kabi ko'rsatkichlarni tahlil qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi turizm statistikasi mahalliy statistik ma'lumotlar manbai. Surxondaryo viloyatida mehmonlar oqimi, mehmonxona quvvati, xizmat turi va daromadlar bo'yicha raqamlar keltirilgan. Maqolada viloyatning real turizm ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun asos sifatida ishlatiladi. C.Hollowayning "Turizm biznesi" nomli kitobida turizm biznesi va xizmatlarni boshqarish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni yoritilgan⁴. Surxondaryo turizm sektoridagi mehmonxonalar va transport xizmatlarini samaradorligini oshirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishda foydalidir. D.Buhalis, R.Lawning "Axborot texnologiyalari va turizmni boshqarishdagi taraqqiyot: Internetdan 20 yil o'tib va 10 yil o'tgach - Elektron turizmni tadqiq qilish holati" nomli asarida "Raqamli turizm va elektron xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha" tadqiqot olib borilgan⁵. Surxondaryo viloyatida onlayn bronlash, virtual tur va raqamli marketing strategiyalarini joriy etish tavsiyalari uchun manba sifatida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar sharhidan ko'rinib turibdiki, Surxondaryo viloyatida turizm xizmatlari samaradorligini oshirish uchun uch asosiy yo'nalish muhim:

1. Marketing va raqamli strategiyalar - Kotler va Buhalis manbalari.
2. Iqtisodiy samaradorlik va statistik tahlil - Smith va stat.uz manbalari.
3. Xizmat sifatini oshirish va boshqaruv - Holloway va Jahon Savdo Tashkiloti manbalari.

Ushbu manbalar birgalikda viloyat turizm salohiyatini optimallashtirish va innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishda mustahkam ilmiy asos yaratadi.

¹ Philip Kotler • John T. Bowen James C. Makens Seyhmus Baloglu Marketing for Hospitality and Tourism Seventh edition

² UN tourism 2024 Global Tourism Statistics

³ Stephan.L.J.Smith Tourism Analysis 2014

⁴ J. Christopher Holloway The Business Of Tourism Eighth edition

⁵ Progress in tourism management Twenty years on and 10 years after the Internet: The state of eTourism research

TAHLILLAR VA NATIJALAR Surxondaryo viloyati turizm salohiyati yuqori hududlardan biri bo‘lib, unda tarixiy, madaniy va tabiiy resurslar jamlangan. Xususan, Termiz shahri va uning atrofidagi arxeologik yodgorliklar, Boysun hududining etnografik xususiyatlari turizm rivojida muhim rol o‘ynaydi.

Surxondaryo tog‘ va vodiy landshaftlariga boy hudud hisoblanadi. Hisor, Boysun va Ko‘hitang tog‘ tizmalari ekologik va sarguzasht turizmi uchun qulay sharoit yaratadi.

- Boysun tog‘lari - trekking va etnoturizm uchun mashhur
- Ko‘hitang hududi - noyob flora va fauna
- Issiq iqlim - yil davomida sayohat qilish imkoniyati

Viloyatda juda ko‘p tarixiy obidalar mavjud bo‘lib, ular madaniy va arxeologik turizmni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

- 374 dan ortiq tarixiy va madaniy obidalar mavjud
- Qadimgi Termiz shahri - Buyuk Ipak yo‘li markazlaridan biri
- Buddaviylik, islomiy va qadimgi sivilizatsiya yodgorliklari

Bu hudud “sivilizatsiyalar chorrahasi” sifatida ham e’tirof etiladi. Surxondaryo ziyorat turizmi uchun juda katta imkoniyatlarga ega:

- Islom olamiga oid ko‘plab maqbaralar va muqaddas joylar
- Tasavvuf allomalari qabrlari
- Xorijiy ziyoratchilar uchun katta qiziqish uyg‘otadi

Hududda ekologik va agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham yuqori:

- Tog‘ va qishloq hududlarida dam olish maskanlari
- Milliy urf-odatlar va an’analarni o‘rganish imkoniyati
- Ekologik toza mahsulotlar va tabiiy muhit

1-jadval.

Surxondaryoga tashrif buyurgan turistlar soni¹

Yil	Turistlar soni (ming kishi)	O‘zgarish sur‘ati, foizda
2020	35	-
2021	52	48
2022	75	44
2023	88	17
2024	91.6	4
2025	100	9

Viloyatda turizm infratuzilmasi sezilarli darajada rivojlanmoqda:

• 80 ta mehmonxona, 141 ta oilaviy mehmon uylari va 9 ta xostel faoliyat yuritmoqda

- Transport va xizmat ko‘rsatish tizimi kengaymoqda
- Termiz shahrida zamonaviy turistik xizmatlar rivojlangan

Turizm samaradorligini oshirish iqtisodiy va menejment yondashuvlarini o‘z ichiga oladi:

¹ Muallif ishlanmasi <https://www.surxonstat.uz> ma’lumotlari asosida

- Iqtisodiy samaradorlik: xizmatlar narxi va sifatining optimal kombinatsiyasi, foyda va xarajatlar tahlili.
- Xizmat sifati: mehmonlar tajribasi va qoniqishi asosida baholash.
- Innovatsion yondashuvlar: raqamli marketing, onlayn bronlash tizimlari, virtual turlar.

Samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Mehmonlar soni va ularning qaytish chastotasi
2. Turizm xizmatlaridan olinadigan daromad
3. Mehmonlarning qoniqish darajasi (anketalar va sharhlar asosida)

Viloyatga tashrif buyuruvchi turistlar soni oshib bormoqda: 2022-yil: 30 ming kishini, 2023-yil 38 ming kishini, 2024-yil 45 ming kishini tashkil qilgan.

2-jadval.

Surxondaryoda turizmdan kelgan daromadlar¹

Yil	Turizm daromadi (mlrd) so'm	O'sish, foizda
2020	120	-
2021	180	50
2022	260	44
2023	320	23
2024	370	15
2025	420	13

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Surxondaryo viloyatida turistlar soni ortib bormoqda. Turizmdan kelgan daromad ham 2020-yilga nisbatan 2025-yilda 3 barobar ortgan. 2025-yilda mehmonxonalar bandligi 35% ga yetgan. Bu ko'rsatkichlardan ma'lumki viloyatda turizm samaradorligini yanada oshirish va turizm infrastrukturasi yanada rivojlantirish talab etiladi. Bandlik darajasi o'rtacha darajada, lekin pastroq segmentda. Mehmonxonalar sig'iminining taxminan 1/3 qismi ishlatilmoqda. Turizm oqimi hali to'liq salohiyatga chiqmagan. Infratuzilma mavjud, lekin talab yetarli emas. Bandlikning past bo'lishining asosiy sabablari: xorijiy turistlar ulushi pastligi, turizmning mavsumiyliги asosan bahor-yoz oylariga turistlarning tashrifi, marketing va brendining sustligi, hududiy notekis rivojlanishi. Bandlikni oshirish yo'llari xalqaro turistlarni jalb qilish, ziyorat va ekoturizmni rivojlantirish, onlayn bron tizimlarini kengaytirish, Boysun, Sherobod, Sariosiyo tumanlarida turizm salohiyatini yanada oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Surxondaryo viloyatidagi turizm xizmatlarining samaradorligini oshirish quyidagi chora-tadbirlar orqali amalga oshirish mumkin:

- Raqamli marketing va innovatsion platformalarni keng joriy etish
- Xizmat sifatini oshirish va kadrlarni malaka oshirish
- Transport va infratuzilmani yaxshilash
- Mahalliy turizm klasterlarini tashkil qilish

¹Muallif ishlanmasi <https://www.surxonstat.uz> ma'lumotlari asosida

- Mehmonlar tajribasi va qoniqishini doimiy monitoring qilish

Ushbu tadbirlar viloyat turizmini rivojlantirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi va Surxondaryoni xalqaro turizm bozorida raqobatbardosh qiladi. Bundan tashqari marketing va reklama strategiyasini qo'llash:

- Onlayn platformalar orqali hududni reklama qilish (Instagram, Facebook).
- Mahalliy va xalqaro turizm yarmarkalarida ishtirok.

Xizmat sifatini oshirish

- Mehmonxonalar va ovqatlanish joylarida xizmat standartlarini joriy etish.
- Kadrlar malakasini oshirish: mehmonlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha treninglar.
- klasterlari yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabr PQ-348-sonli "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7851788>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-may 324-son "Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-3718540>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-may PF-87-son "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-7531559>

4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

5. Philip Kotler John T. Bowen James C. Makens Seyhmus Baloglu Marketing for Hospitality and Tourism Seventh edition

6. Behzod A. Xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirishda xalqaro marketing strategiyalaridan foydalanish //Marketing Jurnal. - 2026. - №. 1.

7. J.Christopher Holloway with Claire Humphreys and Rob Davidson The business of tourism Eighth edition

8. Qodirova, D. & Mamatqulov, Sh. (2021). "Ekoturizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari". Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar nashriyoti.

9. Xudoyberganov, A. (2023). "Yashil turizmni rivojlantirishda hududiy salohiyatdan foydalanish" // Turizm va iqtisodiyot ilmiy jurnali, №3(12), 45-52.

10. To'yli Ravshanov (2024). "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish". Ekonomika va turizm jurnali, 5(3), 101-106.

11. Эргашходжаева Ш., Хакимов З. Тошкент вилояти имижини яратиш асосида инвестицион муҳит жозибadorлигини ошириш //хозяйство. - 2011. - №. 6. - С. 78



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**